



**ISSN 3030-3710 (P)**

**ISSN 3030-3095 (E)**

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI**  
**ilmiy-amaliy jurnal**

**SCIENTIFIC BULLETIN OF BUKHARA INTERNATIONAL**  
**UNIVERSITY**  
**scientific and practical journal**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО МЕЖДУНАРОДНОГО**  
**УНИВЕРСИТЕТА**  
**научно-практический журнал**

**№ 7, 2025**

**Muassis: Buxoro xalqaro universiteti**  
**Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy**  
<http://buxpxti.uz/>, [buxpxti@gmail.com](mailto:buxpxti@gmail.com)

**Tel: +998918312511 Sobirova D.A.**  
**+998905124244 Ostanov Sh.Sh.**  
<https://t.me/OstanovSH>



**BOSH MUHARRIR:**

**Baratov Sharif Ramzanovich**

psixologiya fanlari doktori, professor,

Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shoumarov G'.B.** – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

**TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Mas'ul kotib:**

**Sobirova D.A.** – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**XORIJ OLIMLARI**

**Kozlov V.V.** - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

**Malix S.B.** - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

**Maksimenko S.D.** - psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

**Rejep O'zyurek** - psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

**Darya Gaysina** - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

**O'ZBEKISTON OLIMLARI**

**PSIXOLOGIYA FANLARI**

**Umarov B.M.** - psixologiya fanlari doktori, professor

**Qodirov B.R.** - psixologiya fanlari doktori, professor

**Qodirov U.D.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Kadirov K.B.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Abdurasulov R.A.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Baratova D.Sh.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Utepbeganov M.A.** - psixologiya fanlari doktori, professor

**Nazarov A.M.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Atabayeva N.B.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Fayziyeva M.X.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Qarshiyeva D.S.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Abdullayeva D.U.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Arzikulov D.N.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Djurayev B.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Ayrapetov A.G.** - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Usmanova M.N.** - psixologiya fanlari nomzodi, professor

**Raximova I.I.** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ostanov Sh.Sh.** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rustamov Sh.Sh.** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ibaydullayeva U.R.** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Sobirov A.A.** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**PEDAGOGIKA FANLARI**

**Ibragimov X.I.** - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

**Olimov Sh.Sh.** - pedagogika fanlari doktori, professor

**Abdullayeva B.S.** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Hamroyev A.R.** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rajabov T.I.** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Dilova N.G.** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**FILOLOGIYA FANLARI**

**Shodmonov Q.B.** – filologiya fanlari doktori, professor

**Gadoyeva M.I.** - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rajabov D.Z.** - filologiya fanlari doktori, professor

**Haydarov A.A.** - filologiya fanlari doktori, professor

**Astanova G.A.** - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasulov Z.I.** - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

**Toirova G.I.** - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Murodov G.N.** - filologiya fanlari doktori, professor

**Eshbekov T.U.** - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Raxmatullayev Sh.N.** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Xalilova R.R.** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Saidov X.Sh.** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**MUHARRIRLAR:**

**Raxmatova M.M.** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov M.M.** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov A.M.** - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasini mudiri



**"Scientific Bulletin of Bukhara International University "**  
**scientific-theoretical journal**

**EDITOR-IN-CHIEF:**

**Baratov Sharif Ramazanovich**

doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences

**Deputy editor-in-chief:**

**Shoumarov G.B.** - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD MEMBERS**

**Responsible secretary:**

**Sobirova D.A.** – Doctor of Psychology (DSc), professor

**FOREIGN SCIENTISTS**

**Kozlov V.V.** - Doctor of Psychology, academician (Russia)

**Maliks S.B.** - Doctor of Psychology, academician (Russia)

**Maksimenko S.D.** - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)

**Rejep Ozyurek** - Doctor of Psychology, professor (Turkey)

**Darya Gaysina** - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

**SCIENTISTS OF UZBEKISTAN**

**PSYCHOLOGICAL SCIENCES**

**Umarov B.M.** - doctor of psychology, professor

**Kadirov B.R.** - doctor of psychology, professor

**Kadirov U.D.** - doctor of psychology, professor

**Kadirov K.B.** - doctor of psychology (DSc), professor

**Abdurasulov R.A.** - doctor of psychology (DSc), professor

**Baratova D.SH.** - doctor of psychology (DSc), professor

**Utepbergenov M.A.** - doctor of psychology, professor

**Nazarov A.M.** - doctor of psychology (DSc), professor

**Atabayeva N.B.** - doctor of Psychology (DSc), professor

**Fayziyeva M.Kh.** - doctor of Psychology (DSc), professor

**Karshiyeva D.S.** - doctor of Psychology (DSc), professor

**Abdullayeva D.U.** - doctor of Psychology (DSc), professor

**Arzikulov D.N.** - doctor of Psychology (DSc), professor

**Djurayev B.** - doctor of Psychology (DSc), professor

**Ayrapetova A.G.** - doctor of Psychology (DSc), associate professor

**Usmanova M.N.** - candidate of psychology, professor

**Raximova I.I.** - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

**Ostanov Sh.Sh.** - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

**Rustamov Sh.Sh.** - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

**Ibaydullayeva U.R.** - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

**Sobirov A.A.** - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor

**PEDAGOGICAL SCIENCES**

**Ibragimov X.I.** - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

**Olimov Sh.Sh.** - doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Abdullayeva B.S.** - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

**Hamroyev A.R.** - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor

**Rajabov T.I.** - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

**Dilova N.G.** - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

**PHILOLOGY SCIENCES**

**Shodmonov Q.B.** - doctor of Philology, professor

**Gadoyeva M.I.** - doctor of Philology (DSc), professor

**Rajabov D.Z.** - doctor of Philology, professor

**Haydarov A.A.** - doctor of Philology, professor

**Astanova G.A.** - doctor of Philology (DSc), professor

**Rasulov Z.I.** - doctor of Philology (DSc), professor

**Toirova G.I.** - doctor of Philology (DSc), professor

**Murodov G.N.** - doctor of Philology (DSc), professor

**Eshbekov T.U.** - doctor of Philology (DSc), professor

**Rakhmatullayev Sh.N.** - doctor of philosophy in philology (PhD)

**Khalilova R.R.** - doctor of philosophy in philology (PhD)

**Saidov X.Sh.** - doctor of philosophy in philology (PhD)

**EDITORS:**

**Rakhmatova M.M.** - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

**Tursunov M.M.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

**Kurbonov A.M.** - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

UDK 301:085:15(021)

**Amonova Sanobar Xamidjonovna**  
Qarshi davlat universiteti, psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

## ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA KOPING-STRATEGIYALARINING O‘RGANILISHI NAZARIY ASOSLARI

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda coping-strategiyalar shakllanishiga oid asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Talabalarning stressli vaziyatlarga moslashuvi jarayonida coping-strategiyalarning namoyon bo‘lishi va ularning psixologik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, coping-strategiyalarni baholashda qo‘llaniladigan zamonaviy psixodiagnostik usullar va ularning ilmiy asoslari ko‘rib chiqilgan. Mazkur tadqiqot natijalari talabalarda moslashuv darajasini aniqlash hamda ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar:** coping-strategiya, yengib o‘tuvchi xulq-atvor, hayotiy resurslar, shaxs, inqirozli vaziyat.*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОПИНГ-СТРАТЕГИЙ В СОВРЕМЕННЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

***Аннотация.** В данной статье анализируются основные теоретические подходы к формированию копинг-стратегий у студентов. Освещены проявления копинг-стратегий и их психологические особенности в процессе адаптации студентов к стрессовым ситуациям. Также рассмотрены современные психодиагностические методы, используемые при оценке копинг-стратегий и их научная основа. Результаты данного исследования имеют практическое значение при определении уровня адаптации студентов и разработке стратегий их психологического сопровождения.*

***Ключевые слова:** копинг-стратегия, копинг-поведение, жизненные ресурсы, личность, кризисная ситуация.*

## THEORETICAL BASIS OF THE STUDY OF COPING STRATEGIES IN MODERN PSYCHOLOGICAL RESEARCH

***Abstract.** This article analyzes the main theoretical approaches to the formation of coping strategies in students. The manifestation of coping strategies and their psychological characteristics in the process of students' adaptation to stressful situations are highlighted. Also, modern psychodiagnostic methods used in the assessment of coping strategies and their scientific basis are considered. The results of this study are of practical importance in determining the level of adaptation in students and developing strategies for their psychological support.*

***Keywords:** coping strategy, coping behavior, life resources, personality, crisis situation.*

**Kirish.** Zamonaviy dunyo yildan -yilga yangicha tus olib, undagi ma'lumotlar oqimi tobora ko'payib bormoqda. Ya'ni inson psixikasiga ta'sir etuvchi omillar kun-sayin ortib, ong sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Yangi jamiyat insoniyatga mas'uliyatli vazifalarni hal etish, yangi shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy hamkorlik aloqalarni o'ranatish shuningdek, biror sohada samarali hamda muvaffaqiyatli faoliyat olib borish kabi zaruratni talab etmoqda. Qolaversa, bunday murakkab vaziyatlar har bir insondan o'ziga xos hayotiy tajriba, kognitiv faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, bardoshlilik shu bilan birga, turli muammolarni bartaraf etishga oid yangi xatti-harakatlar majmuini talab etishi tabiydir. Insonga tegishli mazkur sifatlar, zamonaviy psixologiyada "koping-strategiya" tushunchasi bilan ta'riflanib, u insonning yengish, kurashish qobiliyati vaziyatida namoyon bo'ladi. Shu boisdan, stressogen va murakkab vaziyatlarda insonning yengish va kurashish xususiyatini o'rganish, hozirgi psixologik tadqiqotlarda o'ta ahamiyatli vazifa hisoblanadi. "Koping-

## ONA TILI FANINI O'QITISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK TA'LIM TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHNING DIDAK- TIK TIZIMI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ona tili fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik tizimi keng yoritilgan. Shu bilan birga o'quvchining individual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish zarurati namo yon bo'ldi. Tadqiqot davomida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida samarali dars modellarini yaratish tajribalari o'rganildi. Shuningdek, ona tili darslarining mazmuni va metodikasida innovatsion yondashuvlar asosida o'zgarishlar kiritildi hamda bu tizim o'quvchilarni faollikka undadi va ularning tilshunoslik savodxonligini oshirdi.

**Kalit so'zlar:** ona tili, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, didaktik tizim, AKT, metodik yangilanish, zamonaviy ta'lim, klaster metodi.

## ДИДАКТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ОРГАНИЗАЦИИ УРОКОВ НА ОСНОВЕ ТЕХ- НОЛОГИЙ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВА- НИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА РОДНОЙ ЯЗЫК

**Аннотация.** В данной статье широко освещена дидактическая система организации уроков на основе лично-ориентированных образовательных технологий в преподавании родного языка. В то же время проявилась необходимость развития индивидуальных способностей учащегося, формирования самостоятельного мышления и коммуникативной компетенции. В ходе исследования был изучен опыт создания эффективных моделей уроков на основе лично-ориентированного подхода. Также были внесены изменения в содержание и методику уроков родного языка на основе инновационных подходов, и эта система побудила учащихся к активности и повысила их лингвистическую грамотность.

**Ключевые слова:** родной язык, лично-ориентированное образование, дидактическая система, ИКТ, методическое обновление, современное образование, кластерный метод.

## DIDACTIC SYSTEM OF ORGANIZING CLASSES ON THE BASIS OF PERSONAL- ITY-ORIENTED PEDAGOGICAL EDUCATION TECHNOLOGIES IN TEACHING NA- TIVE LANGUAGE SCIENCE

**Abstract.** This article extensively covers the didactic system of organizing lessons based on personality-oriented educational technologies in teaching native language. At the same time, there was a need to develop the individual abilities of the student, form independent thinking and communicative competence. During the study, the experience of creating effective lesson models based on a personality-oriented approach was studied. Also, changes were made to the content and methodology of native language lessons based on innovative approaches, and this system encouraged students to be active and increased their linguistic literacy.

**Keywords:** native language, personality-oriented education, didactic system, ICT, methodological renewal, modern education, cluster method.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim jarayoni tezkor rivojlanayotgan jamiyat ehtiyojlariga moslashishda, yangi yondashuv va metodologiyalarning tatbiq etilishini talab qilmoqda. Bugungi kunda pedagogik jarayonda o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos holda ta'lim berish, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyili muhim o'rin egallamoqda. "Maktabda o'qitish metodi-

kasi o'zgaransa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgaraydi", – dedi Shavkat Mirziyoyev [1]. Bu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi, nutqiy kompetensiyasi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishni maqsad qiladi. Ayniqsa, ona tili kabi ijtimoiy-madaniy va kommunikativ ahamiyatga ega fanlarda bu tamoyilni amalga oshirish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ona tili fanining o'quvchilar shaxsini shakllantirishdagi o'rni beqiyosdir. Til nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur va madaniyat ifodasi sifatida insonning intellektual va ruhiy rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ona tili darslarini shunchaki grammatik qoidalar yig'indisiga emas, balki shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik tizim sifatida tashkil etish zarurati tug'ilmoqda. An'anaviy darslarda o'quvchi ko'pincha passiv rolni egallab kelgan bo'lsa, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bu holatni tubdan o'zgartirib, uni ta'lim jarayonining faol sub'yektiga aylantirdi [2].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan, milliy o'quv dasturlarining yangilanishi, innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalarini keng joriy qilish orqali shaxsga yo'naltirilgan ta'limning amaliyotga tatbiq etilishi uchun sharoitlar yaratmoqda. Bu jarayonda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, zamonaviy metodik yondashuvlardan xabardorligi, o'quvchilarning ehtiyojlarini to'g'ri anglash qobiliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [3]. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari didaktik tizimda muayyan o'rin tutadi. Didaktik tizim bu ta'lim jarayonini boshqarish, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishda foydalaniladigan tizimli yondashuvdir. U o'qitish mazmuni, shakli, vositalari va natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlaydi. Ona tili fanida bu tizimni shaxsga yo'naltirish orqali har bir o'quvchining psixologik, aqliy, til va madaniy ehtiyojlariga muvofiq metodik yondashuvlarni shakllantirish mumkin bo'ladi [4].

Tadqiqot aynan mana shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Bugungi ta'lim islohotlarida shaxsga yo'naltirilgan metodikalar asosida ona tili darslarini qayta tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni o'qitishning har bir bosqichiga integratsiyalash, darslarda o'quvchi faolligini kuchaytirish va eng asosiysi, ularning tilshunoslik kompetensiyasini amaliy asosda rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biridir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvining asosiy belgilariga quyidagilar kiradi: o'quvchining individualligini inobatga olish, uning shaxsiy qiziqishi asosida topshiriqlarni tanlash, mustaqil fikrlash va muammo yechishga yo'naltirilgan metodik uslublardan foydalanish, o'quvchining muvaffaqiyatga erishishiga rag'batlantiruvchi muhit yaratish va ularning o'z o'zini baholash imkoniyatlarini kengaytirish. Ona tili fanida bu tamoyillar o'quvchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda, tahliliy va ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini rivojlantirishga undovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu ayniqsa o'rta ta'lim bosqichidagi o'quvchilar uchun muhim, chunki ular shaxsiy e'tiqod, qarash va ijtimoiy ong shakllanayotgan murakkab psixologik davrda bo'ladilar. Ona tili darslari esa bu jarayonda ijtimoiy-madaniy identifikatsiyani mustahkamlovchi vosita bo'la oladi. Bu sababli ham ona tili ta'limining zamonaviy didaktik tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tatbiq etish nafaqat metodik, balki ijtimoiy ahamiyat kasb etadi [5].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ona tili darslarida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi: matn ustida ishlash, mantiqiy tahlil qilish, o'z fikrini asosli bayon qilish, savol va muammolarga ijodiy yondashish, muloqotda faol bo'lish, o'z-o'zini baholash va refleksiya qilish. Bu esa o'z navbatida, ularning hayotiy faoliyatida ham qo'l keladigan muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aynan mana shu masalalar ya'ni, ona tili fanida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishning didaktik asoslari, metodik yondashuvlari va ularning amaliy natijalari tahlil qilinadi. Ilmiy asoslangan holda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning mazmun-mohiyati ochib berilib, real dars modellarida bu yondashuv qanday tatbiq etilishi mumkinligi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham muhokama qilindi.

### **Metodologiya**

Ilmiy ish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston va xorijiy olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlar, metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish, didaktik tizimni takomillashtirish va ona tili fanining o'qitish usullarini zamonaviylashtirish masalalari so'nggi yillarda alohida e'tiborga loyiq mavzulardan biridir.

O'zbekistonlik olimlaridan jumladan;

H. T. Mahmudov ona tili darslarida kommunikativ yondashuvning afzalliklarini asoslab, o'quvchining nutqiy faoliyatini faollashtirish usullariga to'xtaladi [6]. N. Jo'rayev o'z tadqiqotlarida til o'qitishda interfaol metodlarning o'rnini tahlil qilgan va dars jarayonini o'quvchi faolligiga yo'naltirish zaruratini ta'kidlaydi [7]. Sh. S. Rahmatullayevning asarlarida esa ona tili o'qitishining metodologik asoslari, dars mazmuni va shakllarini tanlashda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari muhim omil sifatida ko'riladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarning o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini chuqur o'rgangan [8]. Z. Mamarasulova esa shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning gender va psixopedagogik jihatlarini yoritgan [9].

Chet ellik pedagog-olimlardan J. Dewey, C. Rogers, Lev Vygotsky, Howard Gardner, David Kolb, Robert Gagné va Benjamin Bloomlarning ishlari bu mavzuga nazariy va amaliy asoslar yaratgan. Jumladan, J. Deweyning "tajribaga asoslangan ta'lim" nazariyasi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning psixologik poydevorini beradi [10]. C. Rogers esa insonparvarlik pedagogikasi doirasida o'quvchining his-tuyg'ulari, ehtiyojlari va faolligini asosiy omil sifatida ko'radi [11].

Lev Vygotskyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi ta'limda individual yondashuvning zaruratini ilmiy asoslab bergan [12]. Bloomning taksonomiyasi esa dars maqsadlarini aniqlashtirish va o'quv faoliyatining bosqichlarini to'g'ri tashkil qilishda muhim vosita hisoblanadi [13]. Howard Gardner esa "ko'p intellektlar nazariyasi" orqali o'quvchilarning turli qobiliyatlariga qarab ta'lim berish zarurligini asoslagan [14].

O'zbekiston ta'lim tizimiga oid me'yoriy hujjatlar, milliy o'quv dasturlari, Prezident qaror va farmonlari, ta'lim to'g'risidagi qonun ham mavzuga oid yondashuvlarning amaliy asosini belgilab bergan. Bu hujjatlar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni milliy ta'lim strategiyasining asosiy yo'nalishi sifatida belgilaydi.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ona tili ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nafaqat metodik yangilik, balki o'quvchi shaxsini rivojlantirishning zamonaviy, ilmiy asoslangan pedagogik tamoyilidir. Ilmiy manbalar mazmunidan foydalanish esa darslarni samarali tashkil etishda nazariy va amaliy yo'nalish beradi.

**Natija va muhokama.** Ushbu tadqiqot doirasida ona tili fanini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishning samaradorligi amaliy tajribalar, kuzatuvlar va tahlillar orqali baholandi. Tahlillar ko'rsatdiki, mazkur yondashuv nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning kommunikativ, ijodiy va tahliliy salohiyatini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

O'tkazilgan eksperimental darslar asosida shakllangan quyidagi 1-jadvalda an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodikalarining qiyosiy natijalari keltirilgan:

An'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv natijalarining qiyosiy tahlili

1-jadval

O'quvchi faoliyati ko'rsatkichi	An'anaviy yondashuv (%)	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv (%)
Faollik darajasi	48%	87%
Mustaqil fikrlash ko'nikmasi	52%	84%
Nutqiy ifoda va muloqot madaniyati	46%	81%







**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**  
**ILMIY AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL**  
**№ 7, 2025**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrda 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Buxoro xalqaro universiteti**  
**ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2025.**  
**№ 7. – 406 b.**